

**TOSHKENT KIMYO - TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

ABDURAXIMOV DILMUROD XAYITMUROTOVICH

**KO'CHMA QUM VA TUPROQLARDA STRUKTURA HOSIL QILISH
UCHUN SUVDA ERUVCHAN POLIMERLARNI YARATISHNING
ILMIY-EKOLOGIK JIHLTLARI**

**11.00.05 – Atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan
oqilona foydalanish**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abduraximov Dilmurod Xayitmurotovich

Ко‘chma qum va tuproqlarda struktura hosil qilish uchun suvda eruvchan polimerlarni yaratishning ilmiy – ekologik jihatlari3

Абдурахимов Дилмурод Хайитмуротович

Научно-экологические аспекты создания водорастворимых полимеров для структурообразования в подвижных песках и почвах..... 21

Abdurakhimov Dilmurod Xayitmurotovich

Scientific and ecological aspects of the creation of water-soluble polymers for structure formation in mobile sands and soils..... 41

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

ABDURAXIMOV DILMUROD XAYITMUROTOVICH

**KO‘CHMA QUM VA TUPROQLARDA STRUKTURA HOSIL QILISH
UCHUN SUVDA ERUVCHAN POLIMERLARNI YARATISHNING
ILMIY-EKOLOGIK JIHLTLARI**

**11.00.05 – Atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan
oqilona foydalanish**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2022.2.PhD/K524 raqam bilan ro'yxatga olingan

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.iktiti.uz) va «Zionet» axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|---|
| Ilmiy rahbar: | Kuldasheva Shahnoza Abdulazizovna kimyo fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Muxamedov Qobiljon Gafurovich, texnika fanlari doktori, professor Abduraximov Xojiakbar Abduraxmanovich kimyo fanlari doktori, dotsent |
| Yetakchi tashkilot: | Namangan muhandislik texnologiya instituti |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019.K/T.87.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «29» «08» soat 11⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor, Tel.: (+99895) 144-67-83; E-mail: ooo_mixt@mail.ru, TKITITI@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. № 2023/25 raqami bilan ro'yxatga olingan (Manzil: 111116, Toshkent tumani, Ibrat MFY., Sho'robozor, Tel.: (+99895) 144-67-83; E-mail: ooo_mixt@mail.ru, TKITITI@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «15» avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil «15» avgustdagi № 2023/25 - raqamli reestr bayonnomasi).



Djalilov A.T.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, d., prof., akad.

Shirinov Sh.D.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., PhD., katta ilmiy sodim

Beknazarov X.S.
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tuproq degradatsiyasi natijasida ko'chma qum va tuproq zarralarining atmosferaga ko'tarilishi bilan bog'liq ekologik muammolar mavjud. Degradatsiyaga uchragan ko'chma qum va tuproq sifati, tuzilishi va barqarorligini oshirish chora-tadbirlaridan biri ularga suvda eruvchan polimer eritmalari bilan ishlov berishdir. Shuning uchun polimer materiallarining turlarini, ularning tuproq tizimidagi harakatini o'rganish, tabiiy xom ashyo va sintetik kimyoviy reagentlar asosida yangi polielektrolit strukturantlarni yaratish va ularni tuproq strukturasi yaxshilashda qo'llash usullarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoda akrilamid asosida dispers tizimlarning polielektrolit komponentlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan akrilamidning polimerlanishi va poliakrilamidning gidrolizlanish jarayonlarini turli xil gidrolizlovchi vositalar yordamida, gidroliz reaksiyasining sharoitlari, ularning eritmalarining strukturaviy xususiyatlarga ta'sirini o'rganish kerak, shuningdek polimer makromolekulalarning qum va tuproq zarralari bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini o'rnatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yangi materiallar, shu jumladan, akrilamid asosidagi polielektrolitlarni olish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan uchinchi yo'nalishida "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va sanoat mahsulotlarini umumiy ichki ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar oshirish"¹ bo'yicha vazifalar belgilandi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy maxsulot bo'lgan poliakrilamidning tarkibini o'rganish, uning gidrolizlanishi uchun yuqori samaradorlikga ega bo'lgan maqbul sharoitlarni aniqlash va poliakrilamidning gidrolizlangan namunalari qum va tuproq zarralari bilan struktura hosil qilishini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar katta ilmiy va ekologik ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonni 2022-2026 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida" gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonlari shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3236-son 2017 yil 23 avgustdagi "kimyo sanoatini 2017-2021 yillarda ja'dal rivojlantirish dasturi to'g'risida" gi va 2018 yil 25 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini ja'dal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3983-sonli qarorlari hamda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risi»dagi farmoni

rivojlantirishning VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni oʻrganilganlik darajasi. Dunyoda suvda eruvchan polimerlar, polielektrolitlar yordamida koʻchma qumlar va tuproqlarning strukturaviy shakllanishi sohasida Hashimoto H., Matsumoto Osamu, Surui Masai, Yercolani D., Grinzi F., Nagata K. I., Yano N., Nagamori S., Ribinder P. A., Morozov S.S., Michurin B.N., Levandyuk A. G., Lykov M. A., Batalyova Sh.B., Musabekov K.B. va boshqalar ilmiy maktablarida faol izlanishlar olib borilgan.

Oʻzbekistonda suvda eruvchan polimerlar, polielektrolitlar yordamida koʻchma qum va tuproqlarga struktura shakllanishi boʻyicha kolloid kimyo sohasida akademik K.S. Axmedov rahbarligidagi maktab tashkil etilgan boʻlib, uning vakillari: E.A. Aripov, F.L. Glekel, S.S. Xamraev, S.N. Aminov, A.A. Agzamxodjaev, U.K. Axmedov, S.A. Zaynutdinov, M. Arazmuratov, Sh.A. Kuldasheva, I.D. Eshmetov, O.K. Beisenbaev, B.N. Nuriev, shuningdek, akademik A.T. Djalilov boshchiligidagi maktab uning vakillari, jumladan B.A. Muxammedgaliyev, SH.D. Shirinov va boshqalar uning rivojiga salmoqli hissa qoʻshdilar.

Shuni taʼkidlash kerakki, bugungi kunga qadar olingan mahsulotning molekulyar ogʻirligini, uning makromolekulasida funktsional guruhlarning tarqalishini va ularning PAA gidroliz jarayonida tuproq dispersiyalarida tuzilish shakllanishiga taʼsirini hisobga oladigan maxsus tashkil etilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar oʻtkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq A-FA-2019-37 “Qoʻngʻirot soda zavodi chiqindilari asosida yangi avlod reagentlarini yaratish shoʻrlangan tuproq va qum boʻronlarini oldini olish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi koʻchma qum va tuproqlar uchun yuqori samarali strukturantlarni olish uchun mahalliy poliakrilamidni gidrolizlash jarayonlarini amalga oshirish va olingan polielektrolitlar xossalari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

natriy va kaliy gidroksidlari yordamida poliakrilamid gidroliz jarayonlarini oʻrganish;

gidroliz jarayoni sharoitlarini polielektrolitlarning molekular massasiga va ular eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlariga taʼsirini oʻrganish;

tuproq suspenziyalarida struktura shakllanishini oʻrganish, polielektrolitning turi va konsentratsiyasiga koʻra infiltratsiya kinetikasining oʻzgarishini aniqlash;

polielektrolitlar tabiatini tuproqning fizik xususiyatlari va tarkibidagi azot, fosfor va uglerod miqdorining oʻzgarishiga taʼsirini oʻrganish;

qoʻllaniladigan polielektrolitlar konsentratsiyasi va tabiatiga qarab koʻchma qumlarni qotirish jarayonlarini oʻrganish;

tuproq va koʻchma qumlarda struktura hosil qiluvchi sifatida yaratilgan polielektrolitlarni dala tajriba sinovidan oʻtkazish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida "Navoiyazot" MChJ ga qarashli poliakrilamid PAA-GS va uning gidrolizlangan maxsulotlari, hamda Qashqadaryo viloyatining ko'chma qum va tuproq namunalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida poliakrilamid gidroliz usullari, gidrolizlangan poliakrilamidlarning fizik-kimyoviy va ko'chma qum va tuproq disperslarida struktura hosil qilish xususiyati hamda ekologik jixatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning usullari. Dissertasiya ishida rentgen-fazoviy fizik-kimyoviy usullari, termogravimetrik va differentsial termik, spektral (IQ - YaMR, Raman, rentgen-lyuminescent), termik, elektron mikroskopik, Gel-xromatografik tahlillar, ion-adsorbsion, elektron mikroskop, kolloid-kimyoviy va analizning kalorimetrik, konduktometrik, titrimetrik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

poliakrilamid gidroliz tezligining eng yuqori qiymatlari 65-70 °C da kuzatilishi polimerning qovushqoqlik xususiyatlariga, shuningdek, gidrolizlovchi gidroksid ionining elektrostatik qaytarilishi uchun manfiy zaryadlangan zarrachalarning past konsentratsiyasiga bog'liqligi aniqlangan;

0,1 va 0,3 M NaCl eritmalarida PAA gidroliz unumi 46 va 48 %, elektrolisiz eritmada 38 % ni tashkil qilishi reaksiyaga kirishuvchi tizimning ion kuchi ortishi bilan PAA gidroliz darajasining ortishi isbotlangan;

gidrolizlovchi kation tabiatining mahsulot unumiga ta'sirini o'rganish past konsentratsiyali ishqor eritmalarida ($\text{MeOH/PAA}=0,5 \leq 1$) $\text{Li}^+ < \text{Na}^+ = \text{K}^+$ tartibida gidroliz darajasining ortishini, $\text{MeOH/PAA} > 1,2$ qiymatida K^+ o'z ichiga olgan tizimda reaksiya unumi yuqoriligi va OH^- va COO^- ionlarining elektrostatik itarish $\text{K}^+ < \text{Na}^+ < \text{Li}^+$ tartibda zaiflashishi aniqlangan;

gidroliz haroratining 80 °C gacha ko'tarilishi dastlabki PAA ning molekulyar og'irligining va qovushqoqligining oshishiga olib kelsa, haroratning yanada oshishi bilan (98 °C gacha) namunalar eritmalarining qovushqoqligini nisbatan past qiymatlarida katta kislota soniga erishishda olib kelib, bu makromolekula tarkibidagi -C-C- bog'lari asosiy zanjir bo'ylab uzilishi va oksidlanish sodir bo'lishi bilan bo'g'likligi aniqlangan;

PAA bilan ishlov berishda tuproq suspenziyasi cho'kish jarayonining tezligi o'rtacha 2,5 sm³/min, NPAA70 uchun 3,25 sm³/min qiymatga teng, bu gidrofob namunaga nisbatan gidrolizlangan akrilamidning agregatlash faolligining yuqoriligi isbotlangan;

0,3 % PAA eritmasi bilan tuproqqa ishlov berish makroagregatlarning miqdori kamayishi hisobiga tuproq mezoagregatlarini 35 dan 64,9 % gacha, NPAA70 va KPAA70 eritmalarini qo'llaganda esa mikroagregatlarning kamayishi hisobiga 55,5 va 76,7 % gacha oshishi dastlabki PAA va uning gidrolizlangan shakllarining tuproq zarrachalari agregatlariga ta'siri mexanizmi xar xilligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'chma qum va tuproq dispers tizimlarida yuqori strukturaviy xususiyatlarga ega bo'lgan poliakrilamid gidrolizi jarayonining ilmiy asoslari ishlab chiqilgan;

tuproq va qum tizimida struktura hosil qilish uchun polielektrolitlarni qo'llash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Kimyoviy va fizik-kimyoviy ishlab chiqarish tadqiqotlar natijalari ishlab chiqilgan texnologiyalarni sanoat ishlab chiqarishi sharoitidagi qurilmalarda sinovdan o'tkazilganligi bilan tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati poliakrilamid asosidagi polielektrolitlarni sintez qilish metodologiyasini takomillashtirish, gidrolizlangan poliakrilamidning tuproq zarralari bilan o'zaro ta'sir qilish mexanizmi va qonuniyatlarini o'rnatish bilan asoslanadi, bu esa tuproq va harakatlanuvchi qumlar uchun yangi strukturantlarni yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy ishlab chiqarish asosida import o'rnini bosuvchi yuqori samarali tuproq va qumlarda struktura hosil qiluvchi strukturantlar olish texnologiyasini ishlab chiqish, o'quv jarayonida kimyo va kimyo texnologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim muassasalarida magistr va bakalavrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko'chma qum va tuproqlarda struktura hosil qilish uchun suvda eruvchan polimerlarni yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ko'chma qum va tuproqlarni mustahkamlash uchun gidrolizlangan polielektrolit asosida strukturantlar olish texnologiyasi "Kimyoviy texnologiyalar" MChJda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining 2023 yil 12 apreldagi 03/01-21-244-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu strukturant bilan ishlov berish cho'l hududlari ko'chma qum va tuproqlarini uchuvchanligini kamaytirish, shamolga, suvga chidamliligini oshirish orqali ekologik muammoni bartaraf etish imkonini bergan;

ko'chma qumli tuproqlarda mustahkam struktura hosil bo'lishida fitomeliorasiya (o'simlik o'stirish) jarayonini amalga oshirish texnologiyasi Qashqadaryo viloyati Nishon tumanida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining 2023 yil 12 apreldagi 03/01-21-244-son ma'lumotnomasi). Natijada, cho'l hududlari ko'chma qumlarining mustahkamlik darajasi oshadi va cho'lga chidamli o'simliklarning zich unishi ta'minlanadi, bu esa ekologik vaziyatni yaxshish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi va materiallari bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan 5 ta ilmiy maqola, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 2 tasi respublikada va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, sanoat tajriba-sinovlari, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Poliakrilamidli polimerlarni tahlil qilish. gidroliz jarayonlari va qo'llanish sohalari»** deb nomlangan birinchi bobida akrilamid polimerlari, ularning olinish usullari va qo'llanilish sohalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga akrilamid polimerlari gidroliz jarayonlarini tahlil qilish, shuningdek atrof muhitni muhofaza qilish muammosini hal qilish uchun suvda eriydigan akrilamid polimerlarini qo'llashning asosiy yo'nalishlari, suvda eruvchan polimerlardan foydalangan holda dispers tizimlarda struktura hosil bo'lishini tartibga solish muammolari bayon etilgan.

Adabiyotlar tahlili mazkur ishning maqsadi va vazifalarini shakllantirish imkonini beradi. Dissertatsiyaning **«Mahalliy PAA va uning asosidagi polielektrolitlarning qusisuyatlarini u'rganish usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida ishning uslubiy qismi yoritilgan. Mahalliy ishlab chiqarilgan PAA namunalari ko'chma qum va tuproq strukturantlarini yaratish uchun tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olingan. Shuningdek solishtirish uchun molekulyar og'irligi $2,0 \cdot 10^6$ bo'lgan import poliakrilamid IPAA (Sigma Aldrich) namunasi ishlatilgan.

Polimer va uning gidroliz mahsuloti eritmalarini kislota soni (KS) teskari titrlash usuli bilan (GOST 8728-88), polimerlardagi azot miqdori umumiy qabul qilingan Keldal usuli bilan aniqlandi.

Polimer namunalari eritmalarining dinamik, kinematik, nisbiy va solishtirma qovushqoqligi (η_{nis}) Ubbelode viskozimetri yordamida konsentratsiyaga bog'liq holda 25 °C haroratda aniqlandi. Buning uchun suv yoki 0,1 N KCl eritmasi bilan suyultirish orqali turli konsentratsiyali (0,50-0,01 g/100 ml) eritmalar tayyorlanadi.

Polimer eritmalarining elektr o'tkazuvchanligi S230 markali konduktometr yordamida aniqlandi. Eritmalarning optik zichligi skanerlash spektrofotometrda 190-700 nm diapazonida UV/V-5100 spektrofotometri (Shanghai Metash Instruments Co.) yordamida aniqlangan.

Gel-xromatografik tahlil (TSK GM PWXL, Germaniya) Agilent 1260 Infinity refraktometrik detektoriga ega suyuqlik xromatografida (AQSh) xromatografik ustun yordamida amalga oshirildi.

Tuproq tarkibidagi azot (ammoniy azot Nessler reaktivi bilan kolorimetrik usul bilan, disulfafenol kislota bilan nitratlar, Kornfeld usuli bilan ishqorli ekstraktidagi engil gidrolizlovchi birikmalardagi azot) va fosfor (Chirikov usuli bilan) miqdorlari aniqlandi.

Dissertatsiyaning **«Poliakrilamid ishqorli gidrolizi sharoitlarining reaksiya mahsulotlari xususiyatlariga ta'sirini o'rganish»** deb nomlangan uchinchi bobida poliakrilamid gidrolizi jarayoni sharoitlarining (harorat,


eritmaning ion kuchi, gidrolizlovchi reagent tabiati) poliakrilamidning gidrolizlangan shakllari qovushqoqligi, strukturaviy xususiyatlari, molekulyar massasi va ular eritmalarining elektr o'tkazuvchanligiga ta'sirini baholash bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

Gidroliz jarayonlari 300 ml hajmdagi to'rt og'izli kolbada olib borildi. Buning uchun 100 ml distillangan suv bo'lgan kolbaga 5 g PAA solindi. Hosil bo'lgan aralashma 35-40 °C ga qizdirildi va belgilangan haroratga etgandan so'ng PAA bilan 1:0,5 dan 1:1,5 gacha molyar nisbatda gidroksid (1,4-4,2 g NaOH; 2,0-6,0 g KOH) qo'shildi. Aralashma doimiy aralastirib turish orqali termostatda 1-6 soat davomida saqlanadi. 50 dan 98 °C gacha bo'lgan haroratning gidroliz jarayoniga ta'siri o'rganildi.

Gidroliz jarayoni kinetikasini o'rganish gidroliz reaksiyasining eng yuqori tezligi $\text{pH} \geq 11$ qiymatlarida, neytral va ozgina ishqoriy muhitda esa eng past ko'rsatkichlarda kuzatilishini ko'rsatdi. Kislotali muhitda, gidroliz jarayonining boshlang'ich paytida reaksiya tezligi pastligi kuzatilishi mumkin, ammo 60 °C da o'zaro ta'sirning dastlabki 1 soatidan keyin reaksiya tezligining keskin o'sishi kuzatilishini 1-rasmdan ko'rishimiz mumkin.

Kinetik egri chiziqlarga ko'ra pH qiymatlarining ortishi reaksiya tezligiga ijobiy ta'sir qiladi degan xulosaga kelish mumkin. Biroq, 2 soatlik o'zaro ta'sirdan so'ng, neytral muhitda poliakrilamidning konversiya darajasi amalda deyarli o'zgarmaydi, kislotali muhitda esa teskari hodisa kuzatiladi.


$\text{pH}=4$ da kinetik egri chiziqlar 2 soatlik jarayondan so'ng gidroliz reaksiyasining o'z-o'zidan tezlashishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, reaksiya jarayonida pH ning o'zgarishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu tizim uchun pH ning ortishi, kuchli ishqoriy muhit uchun esa, aksincha, pH ning pasayishi kuzatiladi.



1-rasm. Turli xil pH qiymatlarida 60°C da NaOH eritmasi bilan PAA ning gidrolizlanish kinetikasi.


Karboksilat guruhlarining to'liq dissotsiatsiyasi natijasida qo'shni guruhlarning sterik ta'sirining pasayishi tu'fayli pH qiymati 11 dan yuqori bo'lgan sharoitda yuqori unumdorlik qiymatlari namayon bu'ladi. Gidrolizlovchi vositaning bunday miqdori ta'sirida PAA eruvchanligining ortishini ta'kidlash lozim. Polimerlarni olinish haroratining o'zgarishiga (PAA gidroliziga) bog'liq holda ularning dinamik qovushqoqligining o'zgarishini o'rganish natijalari 2-rasmda keltirilgan. Gidrolizlangan PAA 0,1 g/l eritmasining dinamik qovushqoqligi (η_{din}) gidroliz harorati 50 dan 60 °C gacha ko'tarilishi bilan 7,28 dan 8,34 sPz gacha ortadi. Haroratning yana 10 °C ga ko'tarilishi 9,3632 sPz qiymatiga

olib keladi. Biroq, gidroliz haroratining yanada ortishi hosil bo'lgan makromolekulyarlarning molekulyar og'irligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.



2-rasm. Polimer eritmalarining qovushqoqligini ularning olinish haroratiga ko'ra o'zgarishi. Jarayonning davomiyligi 2 soat, polimer eritmalarining konsentratsiyasi, g/l: 1) 0,1; 2) 0,025.

Diagrammaning egri chiziqlaridan (3-rasmda) ko'rinib turibdiki, dastlabki 1-coat ichida 60, 70 va 98 °C haroratlarda o'rtacha reaksiya tezligi mos ravishda 0,188; 0,230 va 0,155 mol/l*soat ga teng. Keyin tezlikning keskin pasayishi kuzatiladi va uning qiymati taxminan 0,081; 0,047 va 0,033 mol/l*soatni tashkil etadi. Eng yuqori tezlik qiymatlari 70 °C da kuzatiladi. Haroratni yanada 10 °C ga ko'tarilishi birinchi bosqich va undan keyingi bosqichlarning tezligini pasaytiradi. 1 soatlik o'zaro ta'sirdan keyin 70 °C dan past haroratlarda eng yuqori tezlik ko'rsatkichlari kuzatiladi. Ehtimol, bu haroratda nisbatan yuqori tezlikni saqlanishi polimerning o'ziga xos qovushqoqligi va gidrolizlovchi gidroksil ionini elektrostatik qaytarish uchun manfiy zaryadlangan zarrachalarning past konsentratsiyasi bilan bog'liq.




3-rasm. Turli haroratda NaOH eritmasi ta'sirida PAA gidroliz kinetikasi, °C: 1) 60; 2) 70; 3) 98.

IPAA gidrolizining eritma ion kuchiga bog'likligi u'rganish aralashmada NaCl ning mavjudligi dastlabki daqiqada gidroliz reaksiyasi tezligiga ta'sir qilmasligini, ammo makromolekulalarning konversiya darajasining ortishi bilan elektrolitning ta'siri sezilarli bo'lishini isbotladi. 0,1 va 0,3 M NaCl konsentratsiyali eritmalar uchun gidrolizlangan mahsulotning unumi 46 va 48 % ni tashkil qiladi. Elektrolitsiz eritma uchun bu qiymat 38 % ligi reaksiyaga kirishuvchi tizim ion kuchining ortishi bilan PAA gidrolizining ortishini ko'rsatadi.

Tarkibida ammoniy sulfat bo'lgan PAA tizimi, elektrolitlar ta'siridagiga deyarli o'xshashdir. Biroq, bu tizimda unumdorlik darajasi ancha past bo'ladi. Bu ehtimol, aralashmadagi ammoniy sulfat uchun gidrolizlovchi vositaning asosiy miqdorini sarflanishiga bog'liqdir. Shuning uchun gidroliz jarayoni kinetikasi aralashmadagi ammoniy sulfat miqdoriga ko'ra o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ammoniy birikmasi konsentratsiyasining ortishi gidrolizlangan polimer unumini kamaytiradi, chunki ishqorning bir qismi past molekulyar og'irlikdagi elektrolitning gidroliziga sarflanadi. Shuning uchun jarayonning

yuqori unumdorligiga erishish uchun ammiak usulida olingan PAA namunalari uchun ishqor sarfini oshirish kerak.

NaOH/PAA nisbatining 1 dan 1,2 gacha ortishi IPAA eritmalarini nisbiy qovushqoqligini ortirishini ko'rishimiz mumkin (4-rasm). Ehtimol, bunday sharoitda ishqorning karboksil guruhi miqdoriga nisbati tizimda struktura hosil bo'lishi uchun yuqori konsentratsiyalarga yetadi. Bog'lanishlar sababli polimer eritmalarining yuqori qovushqoqligi kuzatiladi. Shu bilan birga, o'rganilayotgan PAA namunalari eritmalarini uchun o'xshash qovushqoqlik qiymatlariga NaOH/PAA nisbati 1,6 va undan yuqori bo'lganda erishiladi. Ehtimol, ishqorning ma'lum miqdori ammoniy sulfat uchun sarflanadi. Ishqor miqdorining haddan tashqari ko'payishi eritma ion kuchining ortishiga olib keladi, bu tizimdagi strukturani shakllantirishda ishtirok etuvchi funktsional guruhlar atrofida elektr qo'sh qavatning qalinligini o'zgartiradi. Shuning uchun tizim qovushqoqligining pasayishi kuzatiladi.



4-rasm. Hidrolizlangan poliakrilamid 0,1% eritmasining nisbiy qovushqoqligini reagentlar miqdoriy nisbatiga bog'liqligi.

Gidrolizlovchi kation tabiatining mahsulot unumiga ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ishqor konsentratsiyasi past bo'lganda, ya'ni MeOH/PAA 0,5 dan 1 gacha bo'lganda $\text{Li}^+ < \text{Na}^+ = \text{K}^+$ tartibida gidroliz darajasining ortishi kuzatiladi, ya'ni past nisbatlarda natriy va kaliy gidroksidi yordamida PAA gidrolizining kinetikasi va unumidagi farqlar kuzatilmaydi. NaOH/PAA nisbatining 1,2 dan ortishi K^+ o'z ichiga olgan tizimda reaksiya numdorligi ancha yuqori ekanligini ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, OH^- va COO^- ionlarining elektrostatik qaytarilishi $\text{K}^+ < \text{Na}^+ < \text{Li}^+$ tartibda zaiflashadi.

Poliakrilamidning gidrolizi jarayonlarini o'rganish vaqtida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jarayonning harorati taxminan 65-70 °C darajasida 3 soat davomida saqlanishi kerak. Shu bilan birga, eritmaning pH qiymati jarayon tezligi va unumiga ta'sir qiladi. pH qiymati 11 dan yuqorida ishqoriy gidroliz jarayoni 1 soatdan ko'proq vaqt davom etganda unum 55 % dan yuqori bo'ladi, pH qiymati 7 ga teng bo'lgan muhitda 60 °C da esa 13 % ni tashkil etadi. Reaksiyaga kirishuvchi NaOH/PAA aralashmasining nisbati 1 dan 1,6-1,8 gacha ortishi olingan suvda eriydigan PAA polimeri eritmalarining qovushqoqlik xususiyatlarining ortishiga olib keladi, bu esa struktura hosil qiluvchi funktsional guruhlar ulushining ortishi va poliakrilamid namunalarning molekulyar og'irligi ortishiga bog'liq.

Ma'lumki, polimer eritmalarida intensiv tarzda struktura hosil bo'lishi konsentratsiya ma'lum darajaga ko'tarilganda sodir bo'ladi, ya'ni makromolekulalar bir-biri bilan o'zaro ta'sirlashuvi va assotsiatsiyalar yoki

fazoviy koagulyatsion tarmoq hosil qilganda sodir bo‘ladi. Polimerlarda ushbu tarmoqli strukturaning hosil bo‘lishi suyuqlik oqimiga kuchli qarshilik ko‘rsatadi, bu muhit qovushqoqligining ortishida aks etadi (1 va 2-jadvallar).

Ko‘rinib turibdiki, barcha konsentratsiyalarda natriyli eritmalarning solishtirma qovushqoqligi kaliyli eritmalarnikiga nisbatan kattaroqdir. Qovushqoqlik qiymatlaridagi farqlar ko‘proq konsentrlangan eritmalarda seziladi, chunki konsentratsiyaning ortishi polimerlar makromolekulalari o‘rtasida ko‘proq bog‘larning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

1-jadval.

NaOH bilan gidroliz jarayoni sharoitlarining polimer eritmalari xususiyatlariga ta’siri (gidroliz davomiyligi 3 soat)

| C, g/l | NPAA50 | | NPAA70 | | NPAA98 | |
|--------|--------------|------|--------------|------|--------------|------|
| | η_{sol} | pH | η_{sol} | pH | η_{sol} | pH |
| Suv | - | 6,2 | - | 6,2 | - | 6,2 |
| 0,010 | 0,70 | 9,8 | 1,75 | 9,5 | 1,41 | 10,7 |
| 0,025 | 4,78 | 10,0 | 2,43 | 10,1 | 1,89 | 11,2 |
| 0,050 | 3,73 | 10,2 | 3,61 | 10,4 | 2,67 | 11,4 |
| 0,100 | 8,85 | 10,9 | 10,6 | 10,7 | 4,04 | 11,8 |
| 0,250 | 19,57 | 11,4 | 23,3 | 11,1 | 8,77 | 12,2 |
| 0,500 | 26,34 | 12,1 | 38,89 | 11,8 | 18,32 | 12,4 |

2-jadval.


KOH bilan gidroliz jarayoni sharoitlarining polimer eritmalari xususiyatlariga ta’siri (gidroliz davomiyligi 3 soat)

| C, g/l | KPAA50 | | KPAA70 | | KPAA98 | |
|--------|--------------|------|--------------|------|--------------|------|
| | η_{sol} | pH | η_{sol} | pH | η_{sol} | pH |
| Suv | - | 6,2 | - | 6,2 | - | 6,2 |
| 0,010 | 0,68 | 9,9 | 1,11 | 9,5 | 0,97 | 10,8 |
| 0,025 | 1,91 | 10,5 | 1,98 | 10,3 | 1,19 | 11,7 |
| 0,050 | 3,22 | 10,8 | 3,34 | 10,8 | 2,23 | 11,9 |
| 0,100 | 6,65 | 11,2 | 9,16 | 11,0 | 3,81 | 12,2 |
| 0,250 | 14,67 | 11,9 | 18,33 | 11,6 | 7,67 | 12,5 |
| 0,500 | 21,23 | 12,4 | 31,91 | 12,3 | 19,13 | 12,9 |

Dastlabki PAA va uning turli haroratlarda gidrolizlangan mahsulotlarini ularning IQ-spektrlaridan o‘ziga xos yutilish chuqqilari intensivligi va ularning joylashuvi bilan farq qilishini ko‘rish mumkin. Barcha gidrolizlangan mahsulotlar uchun $1710-1690\text{ cm}^{-1}$ sohaga bo‘lgan cho‘qqilar xosdir (dastlabki PAA uchun $1590-1630\text{ cm}^{-1}$ da, amid guruhiga xos bo‘lgan chiziq kuzatiladi), bu erkin karboksil guruhining $-C=O$ bog‘lari hosil bo‘lishi, gidroliz jarayonida amid guruhini o‘zgarishini ko‘rsatadi. Ma’lum bo‘lishicha, ushbu yutilish chiziqlarining intensivligi barcha gidrolizlangan mahsulotlar uchun deyarli bir xil. Bundan tashqari, boshqa chastotalar, ya’ni gidroksil va birlamchi amin guruhining valent tebranishlari sohasidagi chastotalar intensivligida o‘zgarish kuzatiladi. PAA ning IQ-spektrida $3500-3300\text{ cm}^{-1}$ chastotada ikkita tor cho‘qqi kuzatiladi, bu birlamchi amino guruhi ($C-NH_2$) mavjudligini ko‘rsatadi. Gidrolizlangan mahsulotlarning IQ-spektrlari bu cho‘qqilarning o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Shakl o‘zgaradi, cho‘qqi kengligi ortgan va kattaroq burchakka ($3500-3000\text{ cm}^{-1}$) siljigan, bu gidroksil

bog'lariga hosdir. Keng tarmoqli cho'qqining hosil bo'lishi birlamchi amin guruhining to'liq yo'q bo'lib ketishiga bog'liq emas.

Shu bilan birga, natriy va kaliy gidroksidlari yordamida gidrolizlangan namunalarning IQ-spektrlarida sezilarli farqlar kuzatilmagan. Bundan tashqari polielektrolitlar strukturasiidagi farqni isbotlash uchun Raman spektrlari olingan va ular natijalari IK-spektrda olingan natijalarni takrorlaydi.



5-rasm. Namunalarning IQ-spektrlari:
1) PAA; 2) NPAA50; 3) NPAA70.

Birinchi usulga ko'ra, keltirilgan qovushqoqlikning (η_{nis}/S) konsentratsiyaga bog'liqligidan $[\eta]$ qovushqoqlik qiymatlari topilgan. Mark-Kun-Hauving tenglamasi bo'yicha xarakteristik qovushqoqlik, K va α qiymatlari asosida polielektrolitlarning nisbiy molekulyar og'irliklari hisoblab chiqilgan va 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

PAA va uning gidroliz mahsulotlarining molekulyar massa qiymatlari

| Namuna | PAA | NPAA50 | NPAA60 | NPAA70 | NPAA98 |
|------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| Molekulyar massa | $6,85 \cdot 10^5$ | $14,9 \cdot 10^5$ | $17,1 \cdot 10^5$ | $18,1 \cdot 10^5$ | $1,59 \cdot 10^5$ |

- gidroliz jarayonining davomiyligi 3 soat.

Dastlabki poliakrilamid namunasi uchun nisbiy molekulyar og'irligi taxminan 685000 g/mol qiymatiga ega. 50 dan 80 °C gacha bo'lgan haroratda gidrolizlash molekulyar og'irlikning ortishini ta'minlaydi va haroratni yanada oshirish aksincha, gidrolizlangan PAA massasini kamaytiradi. Ehtimol, yuqori haroratlarda (98 °C) -C-C- bog'lar uziladi va oksidlanish sodir bo'ladi. Shu sababli, bu namunalar eritmalarining qovushqoqligining nisbatan past qiymatlarida katta kislota soni bilan tavsiflanadi.

4-jadval.

PAA va uning gidroliz mahsulotlari molekulyar massalari*

| Namuna | KPAA50 | KPAA60 | KPAA70 | KPAA98 |
|------------------|-------------------|-------------------|-------------------|-------------------|
| Molekulyar massa | $10,8 \cdot 10^5$ | $15,2 \cdot 10^5$ | $15,7 \cdot 10^5$ | $1,48 \cdot 10^5$ |

*- gidroliz jarayonining davomiyligi 3 soat.

Viskometrik usullar asosida olingan ma'lumotlar xromatografik usulda olingan natijalar bilan tekshirildi. Buning natijasida PAA polimer va oligomerik akrilamidlar aralashmasidan iborat. PAA ning molekulyar og'irligi $7,9 \cdot 10^5$ ni

tashkil qiladi, ammo tizimda 2500 va 1600 g/mol og'irlikdagi oligomerlar taxminan 25 % mol miqdorida mavjud bo'ladi. Oligomer mahsulotlarning miqdori taxminan bir xil. Hidrolizlangan NPAA50 namunasi yuqori molekulyar og'irlikka $16,1 \cdot 10^5$ ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Biroq, bu namuna yuqori polidispersligi bilan tavsiflanadi.

Polimer mahsulotining ulushi 40 % ga ko'tarilganiga qaramay, tizimda hali ham oligomerlar (2400, 1600, 5100) mavjud bo'ladi. Hidroliz haroratining yana 5-8 °C ga ko'tarilishi polimerning molekulyar og'irligi ($18,2 \cdot 10^5$ kDa) va polidisperslikning biroz ortishiga olib keladi hamda polimer ulushining 70 % gacha ortishi kuzatiladi.

Jarayonni 70 °C haroratda olib borish poliakrilamidning molekulyar og'irligini $20,1 \cdot 10^5$ gacha oshiradi. Shu bilan birga, polimerda taxminan 25 % miqdorida oligomer ham mavjud. Haroratning yanada ortishi namunaning molekulyar og'irligini pasaytiradi va NPAA98 tizimida faqat $2,1 \cdot 10^5$ va 2800 g/mol fraksiyalari mos ravishda 87 va 13 % miqdorida ekanligi aniqlanadi.

Dissertatsiyaning «**Gidrolizlangan poliakrilamidlarning tuproq va qum strukturasi ta'sirini o'rganish**» deb nomlangan to'rtinchi bobida tuproq tizimida sun'iy strukturaning hosil qilish bo'yicha o'rganilgan natijalar va ularning tahlillari keltirilgan. Tuproq agregatlari uning xususiyatlarini belgilovchi strukturaviy kattalik hisoblanadi. Ushbu agregatlarning soni, ularning o'lchami bo'yicha joylashishi va taqsimlanishi ushbu tizimning g'ovakligini belgilaydi. G'ovakli struktura tuproqning o'tkazuvchanligiga, undagi infiltratsiya jarayonlariga ta'sir qiladi. Ushbu xususiyat mikrofloraning faolligiga, tuproqni ozuqa moddalari bilan ta'minlashga ham ta'sir qiladi. Tuproq va qum tizimida strukturaning shakllanishi namlikni nazorat qilish uchun muhim parametrdir.


Ma'lumki, strukturaning hosil bo'lish jarayoniga dispers tizimning mexanik, kimyoviy va mineralogik tarkibi ta'sir qiladi. Tadqiqot ob'yekti sifatida Qashqadaryo viloyati Nishon tumani tuproq namunalari tanlandi. Bu tuproq namunalari tipik serozemlardir. Ular tabiiyatan gumusning miqdori kamligi bilan ajralib turadi. Bu yerda, shunday tuproq tipiga ega bo'lgan hududlarda, asosan paxta yetishtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlarda 1-2 mkm o'lchamdagi namunalar asosida tayyorlangan 10 % tuproq suspenziyalari qo'llanilgan (6-пачм).

Polimerlar konsentratsiyasiga ko'ra cho'kma miqdorining hajmini o'rganish sintez qilingan polielektrolitlarning cho'kish kinetikasiga turli xil ta'sir ko'rsatdi. Cho'kish vaqti va PE konsentratsiyasiga ko'ra tuproq suspenziyasida $V_{cho'k}$ qiymati o'zgarishi dastlabki momentida (10 daqiqagacha) cho'kmaning intensiv ajralishini ko'rsatadi, keyin esa cho'kish jarayonining barqarorlashuvi kuzatiladi va cho'kma hajmi kam o'zgaradi. Ma'lum bo'lishicha, suspenziyadagi polielektrolitlarning past konsentratsiyasida PAA ning kaliyli mahsulotlari uchun koagulyatsion ta'sir ko'proq bo'ladi. Na^+ bilan PE konsentratsiyasining ortishi koagulyatsiyaga olib kelmaydi, aksincha, tuproq suspenziyalariga barqarorlashtiruvchi sifatida ta'sir ko'rsatadi. NPAA70 ning barqarorlashtiruvchi ta'siri 0,1% konsentratsiyasida namoyon bo'ladi.

Polimer bilan ishlov berilmagan suspenziya koagulyatsion cho'kma hosil

bo'lishining tezligi pastligi bilan tavsiflanadi. Bunday qonuniyat struktura hosil qilmagan tuproq mayda zarrachalari sekinroq cho'kishi va yaxshi zichlanishi bilan bog'liq. Shuning uchun, dastlabki daqiqada $V_{cho'k}$, ishlov berilmagan tuproq suspenziyasidan ko'ra ishlov berilgan PE da kamroq (6-rasm).

Cho'kma hajmining tuproq suspenziyasining cho'kish davomiyligiga bog'liqlik egri chiziqlari ishlov berilmagan suspenziya uchun 14 sm^3 ga nisbatan PE konsentratsiyaning $0,05 \text{ g/l}$ gacha ortishi cho'kma hajmining 18 sm^3 gacha o'sishini ko'rsatadi. Bunda $0,10-0,5 \text{ g/l}$ konsentratsiyada ushbu polielektrolit ta'sirida $V_{cho'k}$ qiymati biroz kamayadi. Shu bilan birga, barcha o'rganilgan konsentratsiyalar uchun cho'kma hajmining kamayishi kuzatiladi, ular koagulyantlar sifatida zichroq joylashadigan ixcham koagulyatsion tuzilmalarning shakllanishiga yordam beradi, bu esa tuproq suspenziyalarida $V_{cho'k}$ qiymatining pasayishiga olib keladi. Shu bilan birga, konsentratsiyaning ortishi ($0,2 \%$ yoki undan yuqori), aksincha, barqarorlashtiruvchi effektini beradi.



6-rasm. NPAA70 bilan ishlov berilgan 10 % li tuproq suspenziyasidagi qattiq moddalar cho'kish jarayonining kinetikasi.

NPAA98 bo'lgan tizimda konsentratsiyaga bog'liq holda, y uchun egri chiziqning qiymati 15 minutdan keyin cho'kish maksimal qiymatga yetadi va keyinchalik cho'kma hajmining pasayishi kuzatilishi mumkin. Bu polielektrolitning, past haroratlarda olingan namunalaridan farqli o'laroq, karboksil va amid guruhlari bilan birga ko'p miqdorda karboksilat guruhlari o'z ichiga olgan. Taxmin qilish mumkinki, ushbu namunaning makromolekulalari asosiy zanjir bo'ylab yuqori zaryad zichligi tufayli ko'proq tarqalgan holatda bo'ladi, shuning uchun ular tuproq zarralari bilan yaxshi o'zaro ta'sirlashadi va $0,01-0,02 \text{ g/l}$ da ancha kattaroq agregatlar hosil qiladi, hamda konsentratsiyaning $0,5-1,0 \text{ g/l}$ oralig'ida ortishi bilan stabilizatsiya jarayoni boshlanadi.

Kaliy va natriyli PE ta'sirini bir xil konsentratsiyalarda taqqoslash, konsentratsiyaning ortishi bilan barqarorlashtirish ta'siri natriyli PAA da yuqoriligi kuzatiladi va past konsentratsiyalarda koagulyatsion ta'sir aksincha kaliyli shaklda yuqori ekanligi aniqlangan. Shunday qilib, tuproq dispersining agregatlanish xususiyatlariga ko'ra, eng yuqori faollik KPAA namunalarida kuzatilgan. PEning past konsentratsiyalarda namoyon bo'ladigan tuproq suspenziyalarida agregatlanish qobiliyati zarrachalar orasidagi fibrillardan tashkil topgan yagona polimer "ko'priklar" ning shakllanishiga bog'liq. Tuproq suspenziyalarida PE konsentratsiyasining ortishi bilan polimer "ko'priklar" sonining ko'payishi tufayli makroagregatlarning hosil bo'lish jarayoni kuchayadi, natijada polimer va qattiq zarrachalarning alohida bog'lanmagan yirik agregatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Tuproq suspenziyasini dastlabki PAA yordamida ishlov berish PE ni 0,08-0,1 g/l miqdorda sarf qilinganda o'xshash koagulyatsiya natijalarini ko'rsatadi, ammo cho'kish jarayonining davomiyligi ancha uzoq vaqtni talab qiladi. Cho'kish jarayonining tezligi dastlabki 5 daqiqada o'rtacha 2,5 sm³/min, NPAA70 uchun esa 3,25 sm³/minga teng, bu gidrofob namunaga nisbatan gidrolizlangan akrilamidning agreglash faolligi yuqoriligini ko'rsatadi. Shuning uchun, gidrolizlangan PAA bilan aniqrog'i NPAA70 va KPAA70 bilan ishlov berilgan tuproqlar tizimida struktura ko'proq hosil bo'lishini kuzatish mumkin.

Polimer eritmali bilan ishlov berish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari o'rganilayotgan konsentratsiyalarda tuproqning strukturasi uning fizik xususiyatlarini sezilarli o'zgarishiga olib kelishini ko'rsatdi. Yuqori qismida, 0,4 % massa ulushiga ega bo'lgan dastlabki poliakrilamid, NPAA va KPAA eritmasidan foydalanganda, agronomik ahamiyatga ega bo'lgan fraktsiyalar (0,25-10 mm) ulushining ortishi va changsimon fraktsiyalar ulushining kamayishi kuzatilgan, bu ayniqsa KPAA polimer namunalaridan foydalanganda sezilarli darajada o'zgargan. Shuni ta'kidlash kerakki, polimerlar konsentratsiyasini va ular eritmali sarfini oshirish bilan ular agregatlanishi tufayli changlanuvchi fraktsiyalarini muntazam ravishda kamayishi kuzatildi (5-jadval). Agregat tarkibini aniqlash maqsadida tadqiqotlar GOST R ISO 11464-2011 talablariga muvofiq amalga oshirildi.

5-jadval.

Ishlov berilgan tuproq sirt qatlamining strukturaviy tarkibidagi o'zgarishlar (quruq elash)*

| Namuna | C, % | Fraktsion tarkib (mm), % | | | K _s ** |
|--------|------|--------------------------|---------|-------|-------------------|
| | | ≥10 | 0,25<10 | ≤0,25 | |
| Suv | - | 22,1 | 35,0 | 42,9 | 0,54 |
| PAA | 0,3 | 21,9 | 64,9 | 13,2 | 1,85 |
| | 0,6 | 45,3 | 47,1 | 7,6 | 0,89 |
| NPAA70 | 0,3 | 13,4 | 55,5 | 31,1 | 1,24 |
| | 0,6 | 10,8 | 62,6 | 26,6 | 1,67 |
